

## TRANSCHEGARAVIY EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL QILISHDA XALQARO- HUQUQIY YONDASHUVLAR

**Axmedova Kamola Zoirjon qizi**

**Sarbon Universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi**

**kaxmedova@sarbon.university**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20205884>**

**Annotatsiya:** Globallashtirish sharoitida transchegaraviy ekologik muammolar (havo ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi va iqlim o'zgarishi kabi) dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ularning milliy chegaralardan tashqariga chiqishi, oqibatlarining keng ko'lamliligi va o'zaro bog'liqligi ushbu muammolarni hal etishda faqatgina milliy choralar yetarli emasligini, balki xalqaro hamkorlik va samarali huquqiy mexanizmlarni talab qilishini ko'rsatadi. Mazkur tezis transchegaraviy ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan mavjud xalqaro-huquqiy yondashuvlarni atroflicha tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda ushbu yondashuvlarni milliy qonunchilik va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini o'rganishni maqsad qilgan. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, deklaratsiyalar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish kabi metodlardan foydalanilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari va xalqaro sud amaliyoti ham ko'rib chiqilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro ekologiya huquqi rivojlanish jarayonida bo'lsa-da, ayrim sohalarda, xususan, ijro mexanizmlari, javobgarlik masalalari va rivojlanayotgan davlatlarning imkoniyatlarini oshirishda takomillashtirishga muhtoj. Ushbu tezis xalqaro ekologiya huquqining nazariy va amaliy jihatlarni chuqurlashtirishga, O'zbekistonning transchegaraviy ekologik hamkorlikdagi ishtirokini optimallashtirishga hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

**Аннотация:** В условиях глобализации трансграничные экологические проблемы (такие как загрязнение воздуха, нехватка водных ресурсов, утрата биоразнообразия и изменение климата) приобретают все большее значение. Их выход за пределы национальных границ, масштабность и взаимосвязанность последствий показывают, что для решения этих проблем недостаточно только национальных мер, но требуется международное сотрудничество и эффективные правовые механизмы. Также были рассмотрены передовой опыт зарубежных стран и международная судебная практика. подходов к решению трансграничных экологических проблем, оценка их эффективности и изучение возможностей применения этих подходов в национальном законодательстве и практике. В исследовании использовались такие методы, как сравнительно-правовой анализ, системный подход, изучение международных договоров, конвенций, деклараций и иных нормативных правовых актов. Также были рассмотрены передовой опыт зарубежных стран и международная судебная практика. Анализ показывает, что, хотя международное экологическое право находится в процессе развития, в некоторых областях, в частности, в отношении механизмов правоприменения, вопросов ответственности и расширения прав и возможностей развивающихся стран, необходимы улучшения. Данная диссертация призвана углубить теоретические и практические аспекты международного экологического права, оптимизировать участие Узбекистана в трансграничном экологическом сотрудничестве и содействовать достижению целей устойчивого развития.

**Abstract:** In the context of globalization, transboundary environmental problems (such as air pollution, water scarcity, loss of biodiversity, and climate change) are becoming increasingly important. Their transnational nature, the scale and interconnectedness of their consequences demonstrate that national measures alone are insufficient to address these problems, but require international cooperation and effective legal mechanisms. This thesis aims to comprehensively analyze existing international legal approaches to addressing transboundary environmental problems, assess their effectiveness, and explore the possibilities of applying these approaches to national legislation and practice. The study used methods such as comparative legal analysis, a systematic approach, and the study of international treaties, conventions, declarations, and other regulatory and legal documents. The advanced practices of foreign countries and international judicial practice were also considered. Analyses show that while international environmental law is evolving, it needs improvement in certain areas, particularly in enforcement mechanisms, liability issues, and capacity-building for developing countries. This thesis serves to deepen the theoretical and practical aspects of international environmental law, optimize Uzbekistan's participation in transboundary environmental cooperation, and achieve sustainable development goals.

**Kalit soʻzlar:** Transchegaraviy ekologik muammolar, xalqaro ekologiya huquqi, ekologik xavfsizlik, iqlim oʻzgarishi, xalqaro-huquqiy mexanizmlar, barqaror rivojlanish, xalqaro ekologik hamkorlik, transchegaraviy suv resurslari, ekologik javobgarlik, ehtiyotkorlik tamoyili, davlat suvereniteti, xalqaro ekologik konvensiyalar, ekotizimga asoslangan yondashuv, global ekologik tahdidlar.

## I. KIRISH

Bugungi globalashuv sharoitida transchegaraviy ekologik muammolar insoniyat oldida turgan eng dolzarb va murakkab chaqiriqlardan biri boʻlib qolmoqda. Suv havzalarining ifloslanishi, havo ifloslanishi, biologik xilma-xillikning yoʻqolishi, iqlim oʻzgarishi va choʻllanish kabi hodisalar bir davlat chegaralari bilan cheklanib qolmay, qoʻshni mamlakatlar, hatto butun mintaq va sayyora ekotizimlariga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Bu muammolarning oʻziga xosligi shundaki, ularni hal etish faqatgina milliy darajadagi saʼy-harakatlar bilan amalga oshirib boʻlmaydi; buning uchun davlatlararo hamkorlik, umumiy majburiyatlar va xalqaro miqyosdagi huquqiy mexanizmlar talab etiladi. Aynan shu sababli, transchegaraviy ekologik muammolarni hal qilishda xalqaro-huquqiy yondashuvlarni chuqur oʻrganish, ularning samaradorligini tahlil qilish va takomillashtirish yoʻllarini izlash hozirgi kunda ilmiy va amaliy jihatdan beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro ekologiya huquqi, mazkur muammolarni tartibga soluvchi konvensiyalar, protokollar, deklaratsiyalar va odatiy huquq normalari majmui sifatida, davlatlarning ekologik xavfsizlikni taʼminlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi oʻzaro munosabatlarini belgilab beradi. Biroq, mavjud xalqaro-huquqiy bazaning har doim ham samarali ishlamasligi, milliy manfaatlarining ustunligi, suverenitet tushunchasining oʻziga xos talqini, moliyaviy va texnik resurslarning yetishmasligi kabi omillar uning implementatsiyasida jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, yangi paydo boʻlayotgan ekologik tahdidlar, masalan, transchegaraviy chiqindilarning noqonuniy harakati, genetik modifikatsiyalangan organizmlar bilan bogʻliq xavflar va dengiz ekotizimlarining degradatsiyasi kabi masalalar mavjud huquqiy normalarni qayta koʻrib chiqish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Ushbu tezis ishi transchegaraviy ekologik muammolarni hal etishda xalqaro-huquqiy yondashuvlarning nazariy asoslarini, amaliyotdagi holatini va samaradorligini kompleks tahlil qilishga qaratilganligi bilan dolzarbdir. Tadqiqot mavjud xalqaro shartnomalarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ularning milliy qonunchilikka integratsiyasi mexanizmlarini o‘rganish, shuningdek, davlatlararo nizolarni hal qilishda qo‘llaniladigan huquqiy vositalarni baholash orqali ekologik xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi global va mintaqaviy sa‘y-harakatlarga hissa qo‘shadi. Tadqiqot natijalari mavjud xalqaro-huquqiy tizimni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga, davlatlarning ekologik majburiyatlarini kuchaytirishga va transchegaraviy ekologik muammolarga qarshi kurashishda yanada samaraliroq strategiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot nafaqat ekologiya huquqi nazariyasini boyitadi, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo‘lib, barqaror kelajakni ta‘minlash yo‘lida muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda transchegaraviy ekologik muammolar turli xil fan olimlari tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, Xasanova R.B va Sayfullayev S.I. hammuallifligidagi ilmiy maqolada Xalqaro ekologiya huquqida transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishdagi muammolar[1] yoritilgan bo‘lsa, Safarov I.B hamda Abdujalilov R.lar tomonidan yozilgan maqolada transchegaraviy ekologik muammolar sirasiga kiruvchi Orol dengizi inqirozi va cho‘llanish jarayoni haqidagi dolzarb masalalar muhokama qilingan[2].

Xorijiy imliy manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, ushbu mavzuda [Noah D. Hall\[3\]](#), Ilyasova, M.T. va Asetova, G.B [4], Senja Ramadhika hamda Raditya Pramana Adiguna[5]larning ilmiy ishlari alohida e‘tirofga sazovordir.

## II. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur dissertatsiya ishida transchegaraviy ekologik muammolarni hal qilishda xalqaro-huquqiy yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganish maqsadida kompleks ilmiy-tadqiqot metodologiyasi qo‘llanildi. Tadqiqotning bosh maqsadi xalqaro ekologiya huquqining mavjud mexanizmlarini tahlil etish, ularning samaradorligini baholash hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat bo‘lganligi sababli, tanlangan metodlar mazkur vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan.

Asosiy metodologik yondashuv sifatida **huquqiy tahlil (dogmatik metod)** tanlandi. Bu metod orqali xalqaro ekologiya huquqining fundamental tamoyillari (masalan, ifloslantiruvchi to‘laydi, ehtiyotkorlik tamoyili, transchegaraviy zararni oldini olish majburiyati), uning manbalari (xalqaro shartnomalar, odat tusiga kirgan huquq normalari, sud amaliyoti), shuningdek, xalqaro ekologik tashkilotlarning roli va funksiyalari tizimli ravishda o‘rganildi. Bu tahlil xalqaro-huquqiy normalarning mazmun-mohiyatini, ularning o‘zaro bog‘liqligini va amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

Shuningdek, **qiyosiy-huquqiy tahlil** metodi keng qo‘llanildi. Ushbu metod turli mintaqaviy va universal xalqaro shartnomalardagi, shuningdek, ayrim davlatlarning transchegaraviy ekologik muammolarni hal etish bo‘yicha milliy qonunchiliklaridagi yondashuvlarni solishtirishga imkon berdi. Bu esa eng ilg‘or tajribalarni, muvaffaqiyatli yechimlarni va, aksincha, kamchiliklarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, Yevropa Ittifoqi, Shimoliy Amerika erkin savdo hududi (NAFTA) doirasidagi va Markaziy Osiyo mintaqasidagi transchegaraviy suv resurslarini boshqarish bo‘yicha huquqiy mexanizmlar qiyosiy jihatdan o‘rganildi.

### III. NATIJALAR

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi, avvalo, transchegaraviy ekologik muammolarni tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy normalarning mavjud tizimini shunchaki tavsiflashdan chekinib, ularning samaradorligiga tanqidiy-tahliliy yondashuvni ilgari surishida namoyon bo'ladi. Aksariyat mavjud tadqiqotlar xalqaro konvensiyalar va bitimlarning mazmunini yoritish bilan cheklangan bo'lsa, ushbu ishda mazkur hujjatlarning implementatsiya mexanizmlaridagi bo'shliqlar, davlatlar suvereniteti va ekologik majburiyatlar o'rtasidagi ziddiyatlar hamda nizolarni hal etishning amaldagi vositalari samarasizligi doktrinal nuqtai nazardan chuqur tahlil qilinadi.

Tadqiqotda an'anaviy, ko'pincha fragmentar xarakterga ega bo'lgan (alohida suv havzalari, havo ifloslanishi manbalari bo'yicha) yondashuvlardan voz kechib, transchegaraviy ekologik munosabatlarni yagona, o'zaro bog'liq ekotizimlar kontekstida ko'rib chiquvchi kompleks, ekotizimga yo'naltirilgan huquqiy modelni shakllantirishga harakat qilinadi. Bu o'z navbatida, "umumiy, lekin tabaqalashtirilgan mas'uliyat" tamoyilini yangicha talqin qilish va uni muayyan transchegaraviy havzalar xususiyatlariga moslashtirish zaruratini ilmiy asoslaydi.

Ilmiy yangilikning yana bir muhim jihati davlatlar mas'uliyatiga asoslangan klassik mexanizmlarning cheklanganligini ko'rsatgan holda, preventiv diplomatiya, oldindan baholash va monitoring qilish kabi proaktiv vositalarning rolini kuchaytirishga qaratilgan substansial-protsessual mexanizmlar tizimini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Xususan, transchegaraviy ta'sirni baholash (Espo konvensiyasi doirasida) tartib-taomillarini takomillashtirish, shuningdek, nizolarni hal etishda fuqarolik jamiyati institutlari va mustaqil ekspert guruhlarining ishtirokini kengaytirish bo'yicha yangi takliflar ishlab chiqiladi.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mintaqasi misolida transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha mavjud shartnomaviy-huquqiy bazaning zaif tomonlari aniqlanadi va uni modernizatsiya qilish bo'yicha konseptual yondashuvlar taklif etiladi. Bunda nafaqat suv taqsimoti, balki ekologik oqimni ta'minlash, suv sifatini saqlash, ekologik adolat va yetkazilgan zararni qoplashning samarali vositalarini o'z ichiga olgan yangi avlod mintaqaviy konvensiyasini ishlab chiqish zarurati doktrinal darajada asoslab beriladi. Umuman olganda, tadqiqot natijasida transchegaraviy ekologik muammolarni hal etishning xalqaro huquq nazariyasi va amaliyotini o'zaro uyg'unlashtirgan, imperativ va dispozitiv normalar konvergentsiyasiga asoslangan hamda milliy qonunchilikka implementatsiya qilishning samarali yo'llarini ko'rsatuvchi yaxlit konseptual-huquqiy model yaratiladi.

### IV. MUHOKAMA

Transchegaraviy ekologik muammolarning globallasuvi va keskinlashuvi xalqaro huquq tizimida yangi paradigma va yondashuvlarning shakllanishini taqozo etdi. Mazkur tadqiqotning tahliliy qismi transchegaraviy ekologik nizolarni tartibga solishga qaratilgan xalqaro-huquqiy mexanizmlarning evolyutsiyasi, amaldagi normativ-huquqiy baza va institutsional tuzilmalarning samaradorligini tanqidiy baholashga qaratilgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ushbu sohadagi huquqiy yondashuvlar reaktiv (oqibatlariga qarshi kurashish) modeldan proaktiv (oldini olish) va preventiv (ehtiyotkorlik) tamoyillariga asoslangan kompleks tizimga transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda.

Xalqaro ekologiya huquqining ilk bosqichlari, asosan, ikki tomonlama munosabatlar doirasida yuzaga kelgan aniq va lokal zararlarni bartaraf etishga qaratilgan edi. Bunga yorqin misol sifatida Trail Smelter arbitraji (AQSh va Kanada, 1941) pretsedentini keltirish mumkin.

Ushbu nizo davlatning o'z yurisdiksiyasidagi faoliyat natijasida boshqa davlat hududiga jiddiy zarar yetkazmaslik majburiyatini (sic utere tuo ut alienum non laedas tamoyili) xalqaro odat huquqi normasi sifatida mustahkamladi. Biroq, bu yondashuvning asosiy kamchiligi uning postfaktum xarakterida edi – ya'ni, huquqiy javobgarlik faqat zarar isbotlanganidan keyingina yuzaga kelar edi. Bu esa, o'z navbatida, ekologik zararining qaytarilmas tus olishiga zamin yaratardi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, xususan, 1972-yilgi Stokgolm deklaratsiyasi bilan xalqaro hamjamiyat ekologik muammolarning transchegaraviy va global ko'lamini tan oldi va preventiv choralarning ustuvorligini e'tirof etdi. Stokgolm deklaratsiyasining 21-tamoyili Trail Smelter arbitraji natijalarini kodifikatsiya qilib, davlatlarning o'z resurslaridan suveren huquq asosida foydalanishi ularning atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati boshqa davlatlar yoki milliy yurisdiksiyadan tashqaridagi hududlar atrof-muhitiga zarar yetkazmasligini ta'minlash mas'uliyati bilan chambarchas bog'liqligini belgiladi.

Keyingi davrlarda xalqaro-huquqiy yondashuvlar yanada takomillashib, bir qator fundamental tamoyillar bilan boyidi. Bular orasida "ehtiyotkorlik tamoyili" (precautionary principle) alohida o'rin tutadi. Rio-de-Janeyro deklaratsiyasining (1992) 15-tamoyilida mustahkamlangan ushbu konsepsiya jiddiy yoki qaytarilmas zarar xavfi mavjud bo'lgan hollarda, ilmiy dalillarning to'liq mavjud emasligi chora ko'rmaslik uchun bahona bo'la olmasligini nazarda tutadi. Bu tamoyil an'anaviy isbotlash majburiyatini o'zgartiradi: endilikda potentsial ifloslantiruvchi o'z faoliyatining xavfsizligini isbotlashi talab etiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu tamoyilning amaliyotga tatbiq etilishi, ayniqsa, iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikni saqlash va genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO) bilan bog'liq konvensiyalarda o'z aksini topgan bo'lsa-da, uning huquqiy majburiy xarakteri borasida davlatlar o'rtasida hamon bahslar mavjud. Rivojlangan davlatlar uni qat'iy norma sifatida qo'llash tarafdori bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishga to'siq bo'lishi mumkinligidan xavotir bildiradilar.

"Ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyili (polluter pays principle) transchegaraviy ekologik zararlar uchun iqtisodiy mas'uliyatni belgilashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tamoyilga ko'ra, ifloslanishning oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etish xarajatlari ifloslanishga sababchi bo'lgan subyekt zimmasiga yuklatilishi lozim. Bu yondashuv zararni internalizatsiya qilish, ya'ni ekologik xarajatlarni mahsulot yoki xizmat tannarxiga kiritish orqali ishlab chiqaruvchilarni ekologik toza texnologiyalarga o'tishga rag'batlantirishi kerak. Biroq, amaliyotda ushbu tamoyilni transchegaraviy miqyosda qo'llash bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Birinchidan, transchegaraviy ifloslanish manbasini aniq belgilash va zarar miqdorini baholash murakkab ilmiy-texnik vazifadir. Ikkinchidan, yurisdiksiyaviy to'siqlar, ya'ni zarar ko'rgan davlat sudining ifloslantiruvchi joylashgan davlatdagi yuridik yoki jismoniy shaxsga nisbatan qaror chiqarish va uni ijro etish imkoniyatlarining cheklanganligi asosiy muammo bo'lib qolmoqda.

Global ekologik muammolar, xususan, iqlim o'zgarishi va ozon qatlamining yemirilishi kontekstida "umumiy, ammo tabaqalashtirilgan mas'uliyat" tamoyili (common but differentiated responsibilities) markaziy o'rinni egallaydi. Ushbu tamoyil barcha davlatlar global atrof-muhitni muhofaza qilish uchun umumiy mas'uliyatga ega ekanligini tan olgan holda, sanoati rivojlangan davlatlarning tarixiy emissiyalari va ularning moliyaviy-texnologik salohiyati yuqoriligini inobatga olib, ularga kattaroq majburiyat yuklaydi. Iqlim o'zgarishi bo'yicha BMTning Doiraviy Konvensiyasi (UNFCCC) va uning doirasidagi Kioto protokoli

hamda Parij kelishuvi ushbu tamoyilning yorqin namunasidir. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ushbu tamoyil adolatli yondashuv bo'lishiga qaramasdan, xalqaro muzokaralarda eng ko'p tortishuvlarga sabab bo'luvchi omillardan biridir. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi majburiyatlar taqsimoti, moliyaviy yordam va texnologiyalar transferi masalalari doimiy siyosiy bahslar obyekti bo'lib kelmoqda.

Institutsional mexanizmlar tahlili shuni ko'rsatadiki, transchegaraviy ekologik muammolarni hal qilishda BMT va uning ixtisoslashgan tuzilmalari, xususan, BMT Atrof-muhit Dasturi (UNEP) muhim muvofiqlashtiruvchi rol o'ynaydi. UNEP xalqaro ekologik konvensiyalarni ishlab chiqishda, ilmiy ma'lumotlar to'plashda va davlatlarga texnik yordam ko'rsatishda faol ishtirok etadi. Biroq, uning vakolatlari asosan tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, majburiy ijro etish mexanizmlariga ega emas. Xalqaro Sud (ICJ) va boshqa arbitraj organlari davlatlar o'rtasidagi ekologik nizolarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lsa-da, ularning yurisdiksiyasi davlatlarning ixtiyoriy roziligiga asoslanadi. Gabčíkovo-Nagymaros loyihasi (Vengriya/Slovakiya) bo'yicha Xalqaro Sudning qarori ekologik zaruriyat va shartnomaviy majburiyatlar o'rtasidagi muvozanatni topishga urinish sifatida muhim pretsedent yaratdi, ammo bunday nizolarning kamdan-kam hollarda sudgacha yetib borishi va qarorlarning ijrosi murakkabligi ushbu mexanizmlarning cheklanganligini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi misolida transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish muammosi xalqaro-huquqiy yondashuvlarning amaliyotdagi samaradorligini baholash uchun muhim keys-stadi bo'lib xizmat qiladi. Orol dengizi fojiasi bir nechta davlatlar hududidan oqib o'tuvchi Amudaryo va Sirdaryo suvlaridan nomutanosib foydalanish oqibatidir. Mintaqa davlatlari tomonidan Orolni qutqarish Xalqaro Jamg'armasi (IFAS) kabi institutsional tuzilmalar va suv resurslarini taqsimlash bo'yicha bir qator kelishuvlar imzolangan. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur kelishuvlarning aksariyati deklarativ xarakterga ega bo'lib, ularda majburiyatlarni buzganlik uchun aniq javobgarlik mexanizmlari va nizolarni hal etishning samarali tartiblari ko'zda tutilmagan. Yuqori oqimda joylashgan davlatlarning gidroenergetik manfaatlari va quyi oqimdagi davlatlarning irrigatsion ehtiyojlari o'rtasidagi ziddiyatlar xalqaro suv huquqining "adolatli va oqilona foydalanish" hamda "boshqa davlatlarga jiddiy zarar yetkazmaslik" kabi fundamental tamoyillarini amalda tatbiq etish naqadar murakkab ekanligini namoyon etadi. Mavjud huquqiy baza ko'pincha milliy iqtisodiy manfaatlarning siyosiy ustunligi ostida o'z kuchini yo'qotmoqda.

## V. XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, transchegaraviy ekologik muammolarni tartibga solishga qaratilgan xalqaro-huquqiy tizim o'zida konvensiyaviy normalar, "yumshoq huquq" prinsiplari va institutsional mexanizmlarning murakkab majmuasini mujassamlashtirgan. Biroq, ushbu tizimning samaradorligi davlatlar suvereniteti konsepsiyasi va umuminsoniy ekologik manfaatlar o'rtasidagi fundamental ziddiyat tufayli cheklanmoqda. Mavjud xalqaro shartnomalarning aksariyati reaktiv xarakterga ega bo'lib, ko'pincha ekologik zarar yuzaga kelgandan so'ng javobgarlik masalalarini tartibga solishga qaratilgan, holbuki preventiv yondashuvning ustuvorligi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, xalqaro ekologik huquq normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va ularning ijrosini ta'minlashda yagona, majburiy kuchga ega bo'lgan universal mexanizmlarning mavjud emasligi huquqiy bo'shliqlarni yuzaga keltirmoqda. Bu, o'z navbatida, transchegaraviy ifloslanish uchun javobgarlikdan bo'yin tovlash holatlariga zamin yaratadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, transchegaraviy ekologik muammolarni hal etishning xalqaro-huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Kompleks yondashuvni mustahkamlash. Tarqoq, sektorli shartnomalar tizimidan voz kechib, Transchegaraviy ekologik zararning oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etish to'g'risidagi universal doiraviy konvensiyani ishlab chiqish va qabul qilish zarur. Ushbu hujjat "ifloslantiruvchi to'laydi", ehtiyotkorlik, barqaror rivojlanish kabi fundamental prinsiplarni majburiy norma darajasiga ko'tarishi, shuningdek, davlatlarning o'z yurisdiksiyasidagi faoliyat boshqa davlatlar atrof-muhitiga zarar yetkazmasligini ta'minlash bo'yicha aniq majburiyatlarini belgilashi lozim.

2. Institutsional salohiyatni oshirish. BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) kabi xalqaro tashkilotlarning vakolatlarini kengaytirish, ularga transchegaraviy ekologik holatni monitoring qilish, majburiy xarakterdagi tekshiruvlar o'tkazish va baholash huquqini berish orqali ularning preventiv rolini kuchaytirish kerak. Bundan tashqari, davlatlararo ekologik nizolarni ko'rib chiquvchi, yurisdiksiyasi majburiy bo'lgan ixtisoslashtirilgan Xalqaro ekologik sud yoki mavjud xalqaro sudlar tarkibida maxsus palatalar tashkil etish masalasini ko'rib chiqish dolzarbdir.

3. Milliy darajada implementatsiyani kuchaytirish. O'zbekiston Respublikasi misolida, transchegaraviy daryolar havzalarini boshqarish, sanoat chiqindilarining chegaralararo harakatini nazorat qilish va havo ifloslanishining oldini olishga oid milliy qonunchilikni xalqaro standartlar va eng yaxshi amaliyotlar bilan to'liq garmonizatsiya qilish lozim. Shu bilan birga, ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini, xususan, transchegaraviy zarar yetkazgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan iqtisodiy sanksiyalarni kuchaytirish orqali huquqiy ta'sirchanlikni oshirish tavsiya etiladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Xalqaro Ekologiya huquqida transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishdagi muammolar. Xasanova R.B, Sayfullayev S.I. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. [in-academy.uz/index.php/yo](http://in-academy.uz/index.php/yo)
2. Transchegaraviy ekologik muammolar: Orol dengizi inqirozi va cho'llanish jarayoni. Safarov I.B, Abdusalilov R. "Экономика и социум" №1(140)-2 2026.
3. [Transboundary Pollution: Harmonizing International and Domestic Law](#). Noah D. Hall, 40 U. Mich. J. L. Reform 681 (2007).
4. Problems of legal regulation of transboundary environmental pollution in the Republic of Kazakhstan. Ilyasova, M.T, Asetova, G.B, nternational Journal of Applied and Fundamental Research.2015.
5. Legal perspectives on state responsibility in transboundary environmental pollution. Senja Ramadhika, Raditya Pramana Adiguna, Law and Justice research journal Volume. 1, No. 1, January 2025.